

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA**

**YAQIN SHARQ VA TURKISTON FALSAFIY-MAFKURAVIY  
TA'LIMOTLARINING KONSEPTUAL TAHLILI  
(XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)**

**Yusupova Dildora Dilshatovna**

Yaqin Sharq va Turkiston falsafiy-mafkuraviy ta’limotlarining  
konseptual tahlili (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).....3

**Юсупова Дилдора Дильшатовна**

Концептуальный анализ философско-идеологических учений  
Ближнего Востока и Туркестана (конец XIX – начало XX веков).....33

**Yusupova Dildora Dilshatovna**

Conceptual analysis of philosophical and ideological teachings of the  
Middle East and Turkestan (the late of the 19th - early of 20th century).....65

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....72

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA**

**YAQIN SHARQ VA TURKISTON FALSAFIY-MAFKURAVIY  
TA’LIMOTLARINING KONSEPTUAL TAHLILI  
(XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

Falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.DSc/Fal90 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Madayeva Shahnoza Amonullayevna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Safarova Nigora Olimovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Turayev Baxtiyor Omonovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "31" May soat 09.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (670- raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365) 221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "17" May kuni tarqatildi.

(2025-yil "17" May dagi 12 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Namozov B.B.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Muzaffarov F.D.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi murakkab sharoitda Yaqin Sharq bilan bog'liq bo'lgan muammolar ko'p mamlakatlarni tashvishga solib, vijdon erkinligi va konfessiyalararo bag'rikenglikni ta'minlash, radikallashuv, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish hamda diniy sohadagi davlat siyosatini ma'rifat asosida yuritishni talab etmoqda. Zero, davlatchilik rivojining boy milliy-tarixiy tajribasi va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda umumjamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish, demokratiya, dunyoviylik, erkinlik, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik asosida o'zaro totuv yashash hamda zarur barqaror muhitni ta'minlash jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bois, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq va Turkistonning ichki hamda tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatgan falsafiy-mafkuraviy ta'limotlarning paydo bo'lish sabablari, zamonaviy shaklda sinkretlashgan mafkuralarning yosh avlodning dunyoqarashiga ta'sirini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning ilm-fani, bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida ekstremizm va terrorizm balosining kuchayib borishi, ayniqsa, dunyo tamaddunining o'chog'i bo'lgan Yaqin Sharq mamlakatlarining parokanda bo'lishiga sabab bo'layotgan omillarni o'rganishga doir nazariy-amaliy, ilmiy va fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Diniy betaraflikni saqlash va diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaydigan muhitni ta'minlash, insonparvarlik va adolat, milliy va umuminsoniy g'oyalarga hurmat kabi qadriyatlar singdirish, "Jaholatga qarshi ma'rifat" ezgu umuminsoniy g'oyasi asosida jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun din va davlat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash omillarini, ijtimoiy mezonlari, asosiy tamoyillari va barqarorlikni saqlab qolishning huquqiy asoslarni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy-siyosiy jarayonlarni, ichki va tashqi omillarni tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan xalqchil tamoyilga asoslangan diniy-ma'rifiy sohada islohotlar amalga oshirilmoqda. "Hozirgi notinch zamonda yosh avlodni turli ekstremistik g'oyalar ta'siridan himoya qilish maqsadida yoshlarning radikallashuviga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik bo'yicha mintaqaviy kompleks dastur ishlab chiqishga ham jiddiy ahamiyat qaratishimiz zarur. ...Zero, dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini singdirish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi"<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy O'zbekistonda din omilining davlatning dunyoviy tabiati va huquqiy asoslariga ko'rsatayotgan ta'sirini, sekulyarizmni mustahkamlash zaruratini, diniy qadriyatlarni jamiyatga foydali tarzda integratsiya qilish mexanizmlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Т.: О'zbekiston, 2024. –Б.478-479.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2018-yil 12-dekabrda A/Res/73/128-raqam “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” rezolyutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-fevraldagi O‘RQ-1037-son “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 4-sentyabrdagi PQ-4436-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Yaqin Sharq va Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi oliy o‘quv yurtlari va tadqiqot markazlari, jumladan, Viskonsin-Madison universiteti, Oksford universiteti, Kolumbiya universiteti, Gettysburg kolleji, Jorj Vashington universiteti qoshidagi Yaqin Sharq tadqiqotlari instituti, Fordham universiteti, Kaliforniya Riverside universiteti (AQSH), “Sawab Center” tahliliy markazi (Saudiya Arabistoni), Klassik Sharq va antik davr institutining “Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi” (Rossiya), R.B.Sulaymenova nomidagi Sharqshunoslik instituti (Qozog‘iston), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O‘zbekiston Milliy universiteti (O‘zbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

---

<sup>2</sup> <https://www.wisc.edu>; <https://www.ox.ac.uk>; <https://www.columbia.edu>; <https://www.gettysburg.edu>;  
<https://imes.elliott.gwu.edu>; <https://www.mei.edu>; <https://www.fordham.edu>; <https://www.ucr.edu>;  
<https://sawabcenter.org>; <https://iocs.hse.ru/csmecca>; <https://shygystanu.kz/>; <https://beruni.uz/en-ca/>;  
<https://www.iiu.uz/oz>; <https://nuu.uz>. va boshqa elektron manbalar asosida tayyorlangan.

Dunyoning yetakchi xorijiy ta'lim markazlari hamda ilmiy tadqiqot markazlarida, Yaqin Sharq va islom tadqiqotlari bilan bog'liq masalalar o'rganilgan holda, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: antik davrning oxiri va islomning yuksalishidan boshlab, Yaqin Sharqning barcha siyosiy-ijtimoiy sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib, ushbu hududdagi mavjud muammolarni hal qilish masalalari ochib berilgan va ularni tartibga soluvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan (AQSH); arab-musulmon jamiyatlarining tarixiy rivojlanish modellari, Islomning intellektual tarixi, Yaqin Sharq tarixi va hozirgi davrdagi din omili, arab jamiyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari, arab dunyosining institutlari va siyosiy tizimlari, Yaqin Sharqdagi xalqaro munosabatlar hamda davlat boshqaruvini rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan, shuningdek, ekstremizm va uning tarixiy ildizlari, Islomning oltin davri, arab mamlakatlarining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash strategiyasi, ekstremistik mafkuralarga qarshi tarbiyaning ahamiyati ochib berilgan (Saudiya Arabistoni); Yangi va zamonaviy davrda Yaqin Sharq va unga tutash mintaqalardagi vaziyatlarga oid yangi nazariy metodologik jihatlar, islom va siyosat, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining siyosiy va ijtimoiy jarayonlarida diniylik va dunyoviylik masalalari, Kavkaz va Markaziy Osiyoda islom va siyosat hamkorligi sohasida fundamental ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan (Rossiya); globallashuv va mintaqaviylashuvning kuchayishi sharoitida Qozog'iston va Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining zamonaviy jahon geosiyosiy va geostrategik jarayonlaridagi o'rni va roli o'rganilgan (Qozog'iston); Yaqin Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy, diniy-siyosiy vaziyatlar, dunyoviylik va desekulyar jarayonlar, geosiyosiy tahdidlar, terrorizm va radikallashuv sabablari tadqiq etilgan (O'zbekiston).

Dunyoda Yaqin Sharq va Markaziy Osiyodagi falsafiy-mafkuraviy ta'limotlarni o'rganish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda: Arab dunyosidagi din va siyosat masalasi, Yaqin Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida Islom omilining roli, aqidaparastlik va ekstremizm, jadidshunoslik, global siyosiy islom, Yaqin Sharq va zamonaviylik, Suriya muammosi, "Arab bahori", radikallar tomonidan Islomni siyosiylashtirish musulmonlarga zarar yetkazishi, siyosiy islomga qarshi islom ma'rifati bilan kurashish lozimligi kabi masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yaqin Sharq va Turkistondagi diniy-siyosiy vaziyatlar va falsafiy-mafkuraviy ta'limotlar bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni bir necha guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin.

*Birinchi guruhga* Chor mustamlakasi va Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar kiradi. Jumladan, A.Vamberi, V.Bartold, Yu.Karsov, A.Arsharuni, X.Gabidullin<sup>3</sup>larning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>3</sup> Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Москва: «Восточная литература» РАН., 2003. – 320 с.; Бартольд В.В. Работы по истории ислама и Арабского халифата. [Перепеч. с изд. 1966 г.] – М.: Восточная литература, 2002. – 784 с.; Карцов Ю. Семь лет на Ближнем Востоке 1879-1886 гг. Воспоминания политическая и личная. – С.Петербург.: Экономическая Типо-литография, 1906. – 393 с.; Аршаруни А., Габидуллин Х. Очерки панисламизма и пантюркизма в России. – Рязань.: Безбожник, 1931. – 140 с.

*Ikkinchi guruhga* mahalliy olimlardan H.Ziyayev, B.Ergashev, Sh.Madayeva, N.Abdullayev, F.Karimov, R.Sharipov<sup>4</sup>larning ilmiy izlanishlari zamonaviy davrdagi muhim tadqiqotlar qatoriga kiradi.

*Uchinchi guruhga* Markaziy Osiyolik olimlardan B.Azimova, A.Saliyev, G.Mirzoyev, F.Gaibova, N.Nazirov<sup>5</sup> tadqiqotlarini keltirib o'tish mumkin.

*To'rtinchi guruhga* MDH davlatlari olimlaridan D.Arapov, O.Chikrizova, A.Poxilko, S.Krupin, D.Nechitaylo, O.Zdorovseva<sup>6</sup> larning tadqiqotlari taalluqlidir.

*Beshinchi guruhga* Yaqin Sharq mamlakatlaridagi Berkes Niyazi, Yelda Demirag, O'zkan Azmi<sup>7</sup> kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlarini keltirib o'tish mumkin.

*Oltinchi guruhga* P.Berger, L.Medovoy, X.Micheron, G.Wyman Bury, E.Knabt, Nikki R.Kiddie, Adib Xalid<sup>8</sup> kabi yevropalik olimlarning ilmiy izlanishlari kiradi.

---

<sup>4</sup> Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи: (милoddan олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Т.: Шарк, 2001. – 448 б.; Эргашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма. Идеология младобухарцев. Дис... доктора философских наук. – Бухара: 1993. – 315 с.; Мадаева Ш. Абдурауф Фитратнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари: фалсафа фанлари номзоди ... диссертацияси. – Тошкент: 1996. – 152 б.; Абдуллаев Н.А. Сурия Араб Республикасининг Яқин Шарқ муаммоси юзасидан минтақадаги сиёсати: сиёсий фанлар номзоди ...диссертацияси. – Тошкент: 2000. – 142 б.; Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидаги этносиёсий жараёнларнинг минтақа хавфсизлигига таъсири: сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент: 2017. – 182 б.; Шарипов Р. Туркистон жадидчилиқ ҳаракати тарихидан. – Т.: Ўқитувчи, 2002. – 176 б.

<sup>5</sup> Азимова Б.Т. «Татиммат ал-Баян фи Тарих ил-Афган» Сейида Джамалуддина Афгани как исторический источник по истории центральной Азии (XVIII-XIX вв.). Дис... кандидата исторических наук. – Душанбе, 2010. – 161 с.; Салиев А.Л. Религиозно-политический аспект безопасности Ближнего и Среднего Востока: Саудовско-Иранские отношения и перспективы внутриисламского диалога. Автореферат... кандидата политических наук. – Бишкек: – 26 с.; Мирзоев Г.Д. Реформаторские концепции и обновленческие движения в исламе (философско-критический анализ): Дис... доктора философских наук. – Душанбе: 2020. – 307 с.; Гаибова Ф.М. Публицистика Сайида Джамалиддина Афгани: диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Душанбе: 2015. – 173 с.; Назиров Н.Д. Проблемы политического ислама и конфликты в государствах Центральной Азии: диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. – Душанбе: 2017. – 156 с.

<sup>6</sup> Арапов Д.Ю. Система государственного регулирования ислама в Российской империи: Последняя треть XVIII – начало XX в. Автореф. дис. ... док. истор. наук. – Москва: 2005. – 59 с.; Чикризова О.С. Суннитско-шиитские взаимоотношения в контексте структурных преобразований региона Ближнего и Среднего Востока (1980-Е – 2015 гг.). Дис.. канд. истор. наук. – Москва: 2015. – 182 с.; Похилько А.А. Экстремистские организации в системе региональной безопасности Ближнего Востока. Дис... кандидата политических наук. – Пятигорск: 2015. – 169 с.; Крупин С.В. Исторические корни экстремизма в странах Арабского Востока и его проявления в 2003-2014 гг. Дис... кандидата исторических наук. – Саратов: 2019. – 236 с.; Нечитайло Д.А. Современный радикальный исламизм. стратегия и тактика. Дис... доктора политических наук. – Москва: 2017. – 633 с.; Здоровцева О.В. «Десекуляризация в современном Российском обществе: на примере православия». Автореферат дис... кандидата философских наук. – Ростов-на-Дону: 2019. – 32 с.

<sup>7</sup> Berkes Niyazi. The Development of Secularism in Turkey. – London. Hurst & Company, 1998. – 268 p.; Yelda Demirag. Pan-Ideologies In The Ottoman Empire Against The West: From Pan-Ottomanism To Pan-Turkism./ The Turkish Yearbook of International Relations. 2005. Sayfalar 139 – 158. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/tyir/issue/49999/640923>; Özcan Azmi. Pan-Islamism : Indian Muslims, the Ottomans and Britain (1877-1924) / by Azmi Ozcan. – Leiden; New York; Koln: Brill, 1997. – 227 p.

<sup>8</sup> Peter L. Berger. The Desecularization of the World: Resurgent Religion And World Politics. William B. Eerdmans Publishing Company Grand Rapids, Michigan, 1999. – 135 p.; Medovoi L., Bentley E. Religion, Secularism & Political Belonging. – New York: Durham and London, 2021. – 376 p.; Micheron H. Le jihadisme francais. Quartiers, Syrie, Prisons. Paris, 2020. – 406 p.; G.Wyman Bury. Pan-Islam. – London: Macmillan and Co., 1919. – 212 p.; Knight E.F. The awakening of Turkey: a history of the Turkish revolution. – Philadelphia: J.B.Lippincott Company London: John Milne, 1909. – 356 p.; Nikki R.Kiddie. Sayyid Jamal ad-Din “Al-Afghani”: A Political Biography. – London: University of California Press Berkeley and Los Angeles, 1972. – 479 p.; Adeeb Khalid. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – London, England: University of Colifornia Press, Ltd. 1998. – 336 p.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq hamda Turkiston ijtimoiy-tarixiy hayotida tafakkur va din omili aloqadorligini tadqiq etishga oid bir qancha yo‘nalish kasb etgan yondashuvlarni uchratish mumkin. Biroq, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar Yaqin Sharq va Turkiston falsafiy-mafkuraviy ta‘limotlarining konseptual tahlili (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) mavzusining falsafiy jihatlarini kompleks tarzda, maxsus dissertatsiya mavzusi (DSc) doirasida tadqiq etilmagan. Shu bois, Yaqin Sharq va Turkiston falsafiy-mafkuraviy ta‘limotlarining konseptual tahlili mavzusining falsafiy jihatlarini doktorlik dissertatsiyasi tadqiqoti obyektini sifatida tanlandi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasining “Barqaror demokratik huquqiy jamiyat qurishda axloqiy-ma‘naviy tarbiya va falsafiy, huquqiy ongning dialektikasi” hamda A-OT-2021-11-sonli “O‘zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron transditsiplinar platformasini yaratish” mavzuidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Yaqin Sharq va Turkistonda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi falsafiy-mafkuraviy ta‘limotlarning falsafiy xususiyatlari hamda o‘zbek jamiyatidagi transformatsiyasini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq va Turkistonda paydo bo‘lgan falsafiy-mafkuraviy ta‘limotlarning o‘ziga xos jihatlarini hamda ularning ichki va tashqi siyosatga ta‘sirini ochib berish;

panislomizm mafkurasini Yaqin Sharq mamlakatlarida diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmni vujudga keltirgan omil sifatida tadqiq etish;

Yaqin Sharq mamlakatlarida kuzatilgan islomning siyosiylashuvi, islomofobiya, “Arab bahori”, desekulyarizatsiya kabi jarayonlarning O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta‘sirini aniqlashtirish;

Yaqin Sharq va Turkistonda paydo bo‘lgan mafkuralarning zamonaviy ko‘rinishlarini diniylik va dunyoviylik tendensiyalari asosida tahlil qilish;

Yaqin Sharq mamlakatlarining rivojlanish tendensiyalari va uning Markaziy Osiyo hayotiga ta‘sirini asoslab berish;

O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarini takomillashtirish hamda jamiyatda vijdon erkinligini kafolatlash, diniy bag‘rikenglik, fuqarolararo totuvlik va ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash omillari va tamoyillarini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** sifatida XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq va Turkistonda vujudga kelgan falsafiy-mafkuraviy ta‘limotlar va ularni tahlil etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Yaqin Sharq va Turkistonda XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida vujudga kelgan falsafiy-mafkuraviy ta‘limotlarning o‘ziga xos xususiyatlari va destruktiv ta‘sirini hamda islom modernizmi, “Arab bahori” fenomeni, islomning siyosiylashuvi, desekulyarizatsiya va reislamizatsiya jarayonlarini falsafiy tahlil etishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, komparativistik tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, diskursiv tahlil, freyming, matritsa, sotsiologik so‘rov kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

panislomizm va panturkizm mafkuralarining Yaqin Sharq va Markaziy Osiyodagi tarixiy ildizlari asosida globalizm, siyosiy islom, milliy uyg‘onish kabi sinkretlashgan ko‘rinishga ega zamonaviy qiyofasi, global kuchlarga xizmat qilish, yoshlarni radikal g‘oyalarga ergashtirish kabi maqsad va yo‘nalishlarga moslashtirilgan holda taraqqiy etish natijasida yoshlar tafakkuriga milliy va diniy identiklikning torayishi, mafkuraviy bog‘liqlik kabi omillar orqali salbiy ta‘sir etishi dalillangan;

“panislomizm” mafkurasining XXI asrda ekstremistik ruhdagi “neopanislomizm” ta‘limotini o‘zida aks ettirganligi, radikal xarakterdagi guruhlarning mafkuraviy quroliga aylanganligi hamda uning progressiv falsafiy ta‘limotdan ekstremistik, radikal ta‘limotga aylanib ketishida geosiyosiy (ikkiyoqlama siyosat), ijtimoiy-psixologik (iqtisodiy qiyinchilik, diniy savodsizlik) va axborot-media omillar (radikal kontentning tarqalishi, mafkuraviy targ‘ibot) kabi sabablari va transformatsion, radikallashuv, mafkuraviy vakuum, sinkretizm kabi tamoyillari aniqlashtirilgan;

Yaqin Sharq mamlakatlarida diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmni vujudga keltirgan (islomning siyosiy lashuvi, islomofobiya, “Arab bahori”, desekulyarizatsiya) jarayonlarning O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ideologik migratsiya, “yumshoq kuch” orqali ideologik infiltratsiya, madaniy-diniy rezonans orqali sekulyar davlat modeliga, diniy bag‘rikenglik siyosatiga, ekstremistik oqimlarga nisbatan qat‘iy kurash milliy strategiyasiga ta‘siri ochib berilgan;

Yaqin Sharq mamlakatlarida diniylik (diniy amaliyotga e‘tibor kamayganligi, reislamizatsiyaning kuchayganligi) va dunyoviylik tendensiyalarining namoyon bo‘lish shakllari va o‘zgarib turishi “Arab barometri”ning hududiy (diniy identitet, diniy siyosat), mafkuraviy (birlashtirish, hamjihatlik), metodologik (diniy dunyoqarash o‘zgarishi) mezonlari asosida ochib berilgan hamda panislomizm va panturkizm mafkuralarining ijtimoiy muhitga mafkuraviy moslashuv (mustamlakachilikka qarshi kurash), dinamiklik (vaqt va siyosiy jarayonlarga qarab o‘zgaruvchanlik), sezgirlik (diniy-madaniy, geosiyosiy xavf) tamoyillari asosida dialektik aloqadorligi asoslab berilgan;

zamonaviy O‘zbekistonda din omili dunyoviy davlatning demokratiya, erkinlik, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi meyorlariga ta‘sir ko‘rsatish kuchi hamda din va davlat munosabatida “dunyoviy davlat”ning totuvlikda yashash, barqaror muhitni, vijdon erkinligini ta‘minlash modelini rivojlantirish zarurati sekulyarizm tamoyillari (dunyoviy qonunlarga tayanish, e‘tiqod erkinligi, diniy qadriyatlarni jamiyatga integratsiya qilish, ijtimoiy barqarorlikni saqlash) asosida ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“panislomizm g‘oyasining musulmon o‘lkalarida da‘vat sifatida boshlangan harakat millatchilik ruhidagi birlashish (panturkizm, panarabizm) va islom birligi

asosida birlashish (panislomizm) ko‘rinishida namoyon bo‘lganligi, siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlash hamda diniy birlik asosida gegemonlikka erishish yo‘lida foydalanilganligi isbotlangan;

Yaqin Sharqdagi iqtisodiy nomutanosiblik, yoshlarning ishsizligi, iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi ijtimoiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgani, aholining tez suratlarda o‘sishi ijtimoiy va siyosiy bosimning kuchayishiga olib kelganligi, birinchi to‘lqin (panislomizm), ikkinchi to‘lqin (musulmon modernizatsiyasi) va uchinchi to‘lqinning (neoliberal globallashuv) muvozanatlash, demokratiya va dinlararo bag‘rikenglikni targ‘ib qilish, diniy va dunyoviy siyosatni uyg‘unlashtirish omillari ochib berilgan;

zamonaviy o‘zbek jamiyatida dunyoviylik tamoyilining vijdon va e‘tiqod erkinligi, din va diniy tashkilotlarning qonun oldida tengligi, dinning siyosatdan ajratilganligi kabi qadriyatlari hamda diniy plyuralizm (istagan diniy e‘tiqodga ega bo‘lish) diniy bag‘rikenglik (o‘zaro hurmatda va bir zaminda tinch yashash) va dinlararo muloqot (konfessiyalar o‘rtasidagi samarali munosabatlarning mavjudligi) kabi xususiyatlari dalillangan;

jadid ma‘rifatparvarlarining islomni isloh qilishga oid progressiv g‘oyalaridan Yangi O‘zbekistonda ilm-ma‘rifat, ma‘naviy poklik, tinchlik va taraqqiyotga da‘vat etuvchi tamoyillar hamda mutaassiblik va ekstremizmning zamonaviy ko‘rinishlariga qarshi kurashishda foydalanishning strategik yo‘llari va ijtimoiy hayotga joriy qilish mexanizmlari takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchlili** tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma‘lumotlar, sotsiologik so‘rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan g‘oyalar, taklif va xulosalardan falsafiy yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda jadidlarning islohotchilik harakatlarida yetakchilik qilgan panislomizm va panturkizm mafkuralarining ishlash mexanizmlari, Yaqin Sharq mamlakatlarida millat va din uchun asos bo‘lgan mafkuralarning o‘ziga xos jihatlari, diniylik va dunyoviylik tendensiyalarining muvozanatiga erishishda e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan strategik maqsadlar metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda hamda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba sifatida, shuningdek fuqarolarning vijdon erkinligiga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini bevosita amalga oshirish, konfessiyalararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash, milliy va diniy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash, ziyoratgohlarni va muqaddas qadamjolarini obodonlashtirish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, turli konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro muloqot o‘rnatish, konfessiyalararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash, diniy sohada amalga oshirilayotgan

izchil islohotlarning xalqaro miqyosda munosib e'tirof etilishi, jamiyatda ziddiyatli vaziyatlarning kuchayishini oldini olishda, mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash modelini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati diniy-ma'rifiy soha faoliyati rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishda, fuqarolarning vijdon erkinligiga bo'lgan huquqini amalga oshirish kafolatlarini ta'minlash, diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyati uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishda, konfessiyalararo totuvlikni va diniy bag'rikenglikni ta'minlashda davlat organlari, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda, radikal diniy oqimlar, ekstremistik va terroristik tashkilotlar g'oyalariga qarshi kurashish va ularning mafkurasi tarqalishining oldini olishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Falsafa tarixi", "Ijtimoiy falsafa", "Tarix", "Dinshunoslik" fanlari, vazirliklar, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tarkibidagi kuch tuzilmalar va harbiy qismlarining "Ma'rifat darslari"da, oliy harbiy ta'lim muassasalarida tizimli ravishda o'qitiladigan "Diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" fanlarida, mavzuga oid tadbirlar, davra suhbatlarida, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Din ishlari bo'yicha qo'mita hamda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yaqin Sharq va Turkiston falsafiy-ideologik ta'limotlarining konseptual tahlili bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

panislomizm va panturkizm mafkuralarining Yaqin Sharq va Markaziy Osiyodagi tarixiy ildizlari asosida globalizm, siyosiy islom, milliy uyg'onish kabi sinkretlashgan ko'rinishga ega zamonaviy qiyofasi, global kuchlarga xizmat qilish, yoshlarni radikal g'oyalarga ergashtirish kabi maqsad va yo'nalishlarga moslashtirilgan holda taraqqiy etish natijasida yoshlar tafakkuriga milliy va diniy identiklikning torayishi, mafkuraviy bog'liqlik kabi omillar orqali salbiy ta'sir etishiga doir xulosalar va natijalardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2025-2029 yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturining "VI. Xavfsizlik va aholi muhofazasini kuchaytirish bobi hamda VII. Xalqaro maydonda milliy manfaatlar ustuvorligi" bobining 7.1. "Milliy tashqi siyosat" yo'nalishida keltirilgan vazifalarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2024-yil 25-dekabrda 02/01-77-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiya tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning islom dinining ilm-ma'rifat, ma'naviy poklik, tinchlik-osoyishtalik, taraqqiyot va bunyodkorlikka chaqiruvchi g'oyalarini xalqqa, ayniqsa, yoshlarga yetkazish, mutaassiblik, ekstremizmning maqsadlari, g'oyaviy negizlari, zamonaviy ko'rinishlari va faoliyat uslublarini o'rganish hamda ularga qarshi kurashishning ilmiy-ma'rifiy asoslari bo'yicha siyosiy bilimlarini oshirishga xizmat qilgan;

“panislomizm” mafkurasining XXI asrda ekstremistik ruhdagi “neopanislomizm” ta’limotini o’zida aks ettirganligi, radikal xarakterdagi guruhlarning mafkuraviy quroliga aylanganligi hamda uning progressiv falsafiy ta’limotdan ekstremistik, radikal ta’limotga aylanib ketishida geosiyosiy (ikkiyoqlama siyosat), ijtimoiy-psixologik (iqtisodiy qiyinchilik, diniy savodsizlik) va axborot-media omillar (radikal kontentning tarqalishi, mafkuraviy targ’ibot) kabi sabablari va transformatsion, radikallashuv, mafkuraviy vakuum, sinkretizm kabi tamoyillariga doir ilmiy yangiliklar va xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan AL-442105887-son “Raqamli arxiv: O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarining onlayn yo‘l ko‘rsatkichini yaratish” (2022-2023-yy) amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 13-martdagi 04/11-3675- son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarda din niqobi ostidagi aqidaparast va ekstremistik guruhlarning buzg‘unchi g‘oyalariga qarshi mafkuraviy immunitetlarini shakllantirishga hamda ularning diniy va dunyoviy bilimlarini oshirishga imkon beruvchi ilmiy bazani boyitishga xizmat qilgan;

Yaqin Sharq mamlakatlarida diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmni vujudga keltirgan (islomning siyosiy lashuvi, islomofobiya, “Arab bahori”, desekulyarizatsiya) jarayonlarning O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ideologik migratsiya, “yumshoq kuch” orqali ideologik infiltratsiya, madaniy-diniy rezonans orqali sekulyar davlat modeliga, diniy bag‘rikenglik siyosatiga, ekstremistik oqimlarga nisbatan qat’iy kurash milliy strategiyasi ta’siriga oid xulosa va umumlashmalardan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Terrorizmga qarshi kurashish yo‘nalishidagi hujjatlar ijrosini ta’minlashda hamda vazirlikning targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini o‘tkazishda hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining targ‘ibot faoliyatida, jumladan, 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III-yo‘nalishi “Milliy g‘oya targ‘ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog‘lom mafkura, yangi ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyatni barpo etish”ga qaratilgan chora-tadbirlarning 18-bandi “G‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning ta’sirini tadqiq qilish, zamonaviy raqamli targ‘ibot texnologiyalarini qo‘llash borasida rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish uchun ilmiy jamoalarni xorijga yuborish yuzasidan takliflar tayyorlash”ga oid targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tezkor qidiruv departamenti Terrorizmga qarshi kurashish xizmatining 2024-yil 14-dekabrda 16/T4-15248-son hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 15-yanvardagi 10/12-son ma’lumotnomalari). Natijada, yoshlarda din niqobi ostidagi aqidaparast va ekstremistik guruhlarning buzg‘unchi g‘oyalariga qarshi mafkuraviy immunitetlarini shakllantirishga hamda ularning diniy va dunyoviy bilimlarini yanada oshishiga hamda shaxsiy tarkib bilan o‘tkaziladigan ma’rifat darslarining mazmun-mohiyati boyitilib, ma’rifiy suhbatlarning ta’sirchanlik darajasi yanada oshishiga xizmat qilgan;

Yaqin Sharq mamlakatlarida diniylik (diniy amaliyotga e’tibor kamayganligi, reislamizatsiyaning kuchayganligi) va dunyoviylik tendensiyalarining namoyon bo‘lish shakllari va o‘zgarib turishi “Arab barometri”ning hududiy (diniy identitet,

diniy siyosat), mafkuraviy (birlashtirish, hamjihatlik), metodologik (diniy dunyoqarash o'zgarishi) mezonlari asosida ochib berilgan hamda panislomizm va panturkizm mafkuralarining ijtimoiy muhitga mafkuraviy moslashuv (mustamlakachilikka qarshi kurash), dinamiklik (vaqt va siyosiy jarayonlarga qarab o'zgaruvchanlik), sezgirlik (diniy-madaniy, geosiyosiy xavf) tamoyillari asosida dialektik aloqadorligi haqidagi ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalaridan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan tizimli ravishda tayyorlanib, turli shakllarda e'lon qilib borilayotgan "Allomalar haqida 10 ta haqiqat" loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025-yil 3-yanvardagi 02/01-son ma'lumotnomasi). Natijada, yurtimizda islom sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichlarini o'rganish va xalqqa yetkazishda, ilmiy-tadqiqot markazi uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manbaa bo'lib xizmat qilgan;

zamonaviy O'zbekistonda din omili dunyoviy davlatning demokratiya, erkinlik, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi meyorlariga ta'sir ko'rsatish kuchi hamda din va davlat munosabatida "dunyoviy davlat"ning totuvlikda yashash, barqaror muhitni, vijdon erkinligini ta'minlash modelini rivojlantirish zarurati sekulyarizm tamoyillari (dunyoviy qonunlarga tayanish, e'tiqod erkinligi, diniy qadriyatlarni jamiyatga integratsiya qilish, ijtimoiy barqarorlikni saqlash) to'g'risidagi ilmiy natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi faoliyatida, jumladan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasining 2024-yil 14-dekabrda 04/3-D-01-son ma'lumotnomasi). Natijada, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekiston – "dunyoviy davlat" degan norma mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola (11 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 238 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik

darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq va Turkiston falsafiy-mafkuraviy ta'limotlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Yaqin Sharq va Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti, unda vujudga kelgan falsafiy-mafkuraviy ta'limotlarini o'rganishning nazariy va metodologik asoslari, ichki hamda tashqi siyosatida “islom omili”ning roli tadqiq etilgan, ularning jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko'rsatgan ta'siri ochib berilgan.

Tadqiqotda Yaqin Sharq mamlakatlari va Turkiston hududidagi ijtimoiy-siyosiy hayot, mustamlaka ostidagi xalqlarning milliy ozodlik uchun, milliy va diniy birlik uchun G'arb g'oyalariga qarshi kurashishga undovchi ideologik ta'limotlarning vujudga kelishi va ayni shu ta'limotlarga qarama-qarshi tendensiyalarning Rossiya va Angliya imperiyalari tarafidan qo'llanilishi tizimli yondashuv asosida tahlil etilgan.

XIX-asrning ikkinchi yarmida Yaqin Sharq va Turkistonda amalga oshirilgan islohotlar tarixda yangi ideologik konsepsiyalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Buning oqibatida ba'zi yangi jamiyatlar paydo bo'lgan bo'lsa, ba'zi g'oyalarning esa tugatilishi ro'y berdi<sup>9</sup>. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan mafkuraviy ta'limotlarning bugungi kunda ham diniy-siyosiy ruhdagi guruhlar tomonidan qo'llanilishi ushbu hududlarda beqarorliklarni keltirib chiqarayotganligini unutmazlik lozim. Shuningdek, tarixiy ildizlar asosida yetib kelgan, zamonaviy qiyofa kasb etayotgan ideologik ta'limotlar avvalgi tahdidlar ko'lamidan kengroq va xavfliroq vaziyatlarni keltirib chiqarayotganligini qayd etish darkor.

Dissertatsiyada dunyo olimlarining e'tibor markazida bo'lgan Yaqin Sharq va Turkistondagi mafkuraviy ta'limotlarni o'rganish yangicha yondashuvlarni talab qilayotganligi qayd etilgan. Chunki, oradan o'tgan bir asrlik vaqt mobaynida turli mafkuralar yillar mobaynida o'zgarib, yangicha ko'rinishda qaytadan dunyoga kela boshlaganligi oqibatida, hali-hanuz tarixiy ildizlar ta'sirida bir qator muammolar bartaraf etilmayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan, *birinchidan*, din omili bilan bog'liq bo'lgan mafkuraviy ta'limotlarning Yaqin Sharq va O'zbekiston ichki hamda tashqi siyosatida muhim o'rin tutishi; *ikkinchidan*, Yaqin Sharq va O'zbekistonda yashovchi aholining musulmon ekanligi va diniy ta'limotlarning ushbu hududda azaldan mavjudligi; *uchinchidan*, din omili Yaqin Sharq va O'zbekiston aholisini an'anaviy bog'lovchi ijtimoiy tizim ekanligi hisoblanadi.

Tadqiqotchi fikricha, Yaqin Sharq va Turkistondagi falsafiy-mafkuraviy ta'limotlarni nazariy-metodologik va mantiqiy ketma-ketlikda o'rganish odatda

<sup>9</sup> Qarang: Самир Исмаил. Ближний Восток в системе современной международной политики. // Вестник РУДН, серия Политология, 2008, № 1.

o'sha hududlardagi arab davlatchiligining inqirozi, diniy-siyosiy vaziyat, sekulyarizatsiya jarayonini o'rganish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Chunki, Yaqin Sharq, ya'ni arab dunyosi boshidan kechirayotgan inqirozlar zamirida mustamlakachilik davrini yodga soluvchi bir qator holatlar ko'zga tashlanmoqda. Agar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mustamlakachilarning mafkuraviy majmuasiga “vasiylik o'rnatish”, “bo'shliqni to'ldirish” kabi iboralar kiritilgan bo'lsa, XX-XXI asrlar bo'sag'asida ularning o'rnini “islohotlar loyihasi” kabi g'oyalar egallagan<sup>10</sup>.

Yaqin Sharq mintaqalaridagi muammolar zamirida uzoq vaqtlardan beri tarixiy, etnik, diniy, siyosiy masalalar mavjud bo'lib, bu muammolar tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Ana shunday muammolarning yechimini topmagunga qadar, ular yanada alangalanib o'z otashini yon-atrofga tarqatib, tahdidlar ko'lamini yanada kengaytirib boraveradi. Globallashuv davrida milliylik, diniylik va dunyoviylik tamoyillarining to'qnashuvi ko'plab davlatlar va xalqlarning taqdirini o'zgarishiga hamda turli ko'rinishdagi muammolarning paydo bo'lishiga turtki bo'lmoqda. Ayniqsa, Yaqin Sharq mamlakatlarida mafkuralar to'qnashuvining keskin tus olishiga XX asr boshlarida vujudga kelgan ta'limotlar sabab bo'lmoqda. Shuning uchun Yaqin Sharq davlatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotini tadqiq etish, mavjud ijtimoiy-siyosiy muammolarning modellarini va xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyada asosiy urg'u Yaqin Sharq va Turkistondagi falsafiy-mafkuraviy ta'limotlarga qaratilgan bo'lib, ularning kelib chiqish sabablari o'rganilgan. Ushbu mafkuralarni o'rganishda o'sha davrning shart-sharoiti qanchalik murakkablik kasb etgani, uning metodologiyasiga qo'yiladigan talablar ham shunchalik yuqorilashib borishi asoslab berilgan. Shundan kelib chiqqan holda, hududlardagi diniy-siyosiy vaziyat va undagi mafkuralarning ishlash mexanizmlarini o'rganishda, tarix falsafasi ilmiy bilimlar bergan dalillarga hamda zamon talablariga javob beradigan metodologiyaga tayanilgan. Shu bilan birga o'tgan davr tarixini yoritishda obyektivlik tamoyilidan foydalanilgan. Chunonchi, Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur”<sup>11</sup>. Aks holda, haqiqat oydinlashmaydi va abstrakt holatlar saqlanib qolaveradi.

Dissertant fikricha, tarixiy voqe'lik va zamonaviy diniy jarayonlarni ilmiy nuqtayi nazardan tushunish ko'p jihatdan o'rganilayotgan obyektga nisbatan tanlangan usul va yondashuvlarga bog'liqdir. Chunki, mavzuning falsafa, tarix, din va siyosat sohalari bilan kesishuvi eng murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa, tadqiqot davomida o'rganiladigan mafkuralarning ham sinkret ko'rinishdagi holatlarini vujudga keltiradi. Shu sabab, bu masalalarni tarix falsafasi nuqtayi nazaridan komparativistik usul orqali tahlil qilish eng muhim vazifa hisoblanadi.

<sup>10</sup> Qarang: Самир Исмаил. Ближний Восток в системе современной международной политики. // Вестник РУДН, серия Политология, 2008, - № 1.

<sup>11</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатининг биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б.5.

Mustamlakachilik an'anaviy boshqaruv tuzilmalarini zaiflashtirib, G'arbning yangi millatchilik, demokratiya, fuqarolik jamiyati va dunyoviylik g'oyalarini Yaqin Sharq mintaqasiga olib keldi. Qanchalik paradoksal tuyulmasin, XIX–XX-asrlarda tashqi hukmronlikka qarshi avj olgan mustamlakachilikka qarshi harakat ham G'arb g'oyalari ta'sirida bo'lgan. Islomning zamonaviy tarixdagi voqealaridan biri bu musulmon islohotchilarining orasidagi bo'linishdir. Musulmon islohotchiligi dastlabki davrlarda ratsionallikka asoslangan edi. Keyinchalik bu harakatning irratsionallik kasb etishi mafkuralarning ham ikki xil ko'rinishga ega bo'lishiga olib keldi. Masalan, islom birligi g'oyasi bir tarafdin Turkiya imperiyasini tanazzuldan saqlab qoluvchi asosiy omil bo'lgan bo'lsa, Misrda esa, turli aqidaparast guruhlarining shakllanish omiliga aylandi<sup>12</sup>. Turkistonda musulmon ziyolilari orasida jadidchilar va qadimchilar kabi guruhlarini harakatlantiruvchi mafkura vazifasini o'tadi. Ayniqsa, jadidchilik harakatidagi islohotchilik yo'llaridan biri bo'ldi.

Chunki, aynan islohotchilik harakatlarida tayanilgan mafkuralar diniy-yangilanish jarayonlari bilan birga G'arbning fan-texnika yutuqlarini ham o'zlashtirib borishni o'z oldiga maqsad qilgan edi. Bu esa, islom modernizmini shakllanishiga hamda Rossiya imperiyasining tarkibidagi mustamlaka musulmon o'lkalarida jadidchilik harakati negizida panislomizm hamda panturkizm mafkuralarini tarqalishiga olib keldi.

Dissertatsiyada Turkiston jamiyatida islomning asosiy rolga qaramay Rossiyaning milliy siyosatidan oshkora va yashirin norozilik yuzaga kelishida, mintaqadagi tub xalqlarning o'ziga xos mentaliteti, urf-odatlarini, an'analari va ustuvorliklari salbiy reaksiyaga sabab bo'lganligi asoslab berilgan. Shuning uchun, Peterburg va mahalliy amaldorlar har qanday mahalliy o'ziga xoslik ko'rinishida qo'zg'olon va davlatga xiyonat tahdidlarini qabul qilib, uchta asosiy "izm": separatizm, panturkizm va panislamizm libosini kiyib oldilar<sup>13</sup>. Shu bois, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq va Turkiston o'lkasidagi bo'lib o'tgan voqea va jarayonlarni obyektiv baholamay turib, bugungi kun muammolarini bartaraf etib bo'lmaydi. Chunki, vaqt va zamon muayyan davrda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatib beribgina qolmay, balki uni tuzatish mumkin bo'lgan usullari va yondashuvlarni ham ko'rsatib berishi, dogmatizmga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqida ogohlantiradi. Chunonchi, "bizning davrimiz ma'naviy tiklanish tendensiyasi bilan ajralib turadi. XXI-asrning asosiy xususiyati diniy dogmalarga ommaviy murojaat qilish, ateistik mafkura va diniy qoloqlikka qarshi kurash davri o'rnini bosgan diniy omil va diniy tafakkurning kuchayishidir"<sup>14</sup>.

Yaqin Sharq va Turkistonning ham ichki, ham tashqi siyosatida islom muhim harakatlantiruvchi omil sifatida hamisha mavjud bo'lib kelgan. Chunki, bu mamlakatlarning aholisini ko'pchiligini musulmonlar tashkil etadi. Ana shu tarixiy haqiqatni unutmagan holda, islom ushbu o'lkalar davlat boshqaruv siyosati hamda

<sup>12</sup> Морина Т.С. Идеология исламизма как фактор политики современных мусульманских стран // Политико философский ежегодник. 2011. - №4. - С. 94.

<sup>13</sup> Котюкова Т.В. Туркестан в дискурсе фронтальной модернизации Российской империи в конце XIX – начале XX в. // Ислам в современном мире. 2015. Том 11. - № 1. – С. 45.

<sup>14</sup> Мирзоев Г.Д. Реформаторские концепции и обновленческие движения в исламе (философско-критический анализ): Диссертация на соискание ученой степени доктора философских наук. - Душанбе: 2020. - С. 28.

diplomatik siyosatida muhim o‘rin egallaganligini anglash qiyin emas. Bugun musulmon olami juda murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshidan kechirmoqda. Yaqin Sharq va bir qator mamlakatlarda iqtisodiy tanglik, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik hamda qurolli to‘qnashuvlar ko‘zga tashlanmoqda<sup>15</sup>.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Yaqin Sharq va Turkiston mintaqalaridagi falsafiy-mafkuraviy ta‘limotlar, o‘zining ichki omillaridan ijtimoiy-iqtisodiy, diniy-mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik jihatlar, tashqi omillaridan esa geosiyosiy, diniy-siyosiy va harbiy-siyosiy jihatlar tomonidan shakllanganligini ko‘rsatadi. Ushbu omillar “islom omili” bilan uyg‘unlashgan holda, mintaqaning ichki va tashqi siyosatiga sezilarli ta‘sir o‘tkazgan. Bu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda va aynan shu holat Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqalarida islom omili bilan bog‘liq muammolarni kuchayishiga sabab bo‘layotganligini ilmiy tadqiq etish va muammolarga yechim topish tadqiqotimizning maqsadini belgiladi.

Dissertatsiyaning **“Yaqin Sharq va Turkistondagi panislomizm hamda panturkizm mafkuralarining falsafiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Rossiya va Turkiya tashqi siyosatida o‘zaro aloqador mexanizmlar, islom birligi g‘oyasining Yaqin Sharq va Turkistonda tarqalishi, Yaqin Sharq va Turkistonda siyosiy mafkuraning vujudga kelishida tashqi siyosiy omillarning ta‘siri, islom modernizmi masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq va Turkistonda bir qator falsafiy-mafkuraviy ta‘limotlar paydo bo‘lib, ushbu ta‘limotlar o‘sha davrdagi Rossiya, Turkiya va Angliya kabi buyuk imperiyalarning davlat siyosatiga ta‘sir ko‘rsatganligi tadqiq qilingan. Ayniqsa, islom omili bilan bog‘liq bo‘lgan falsafiy-mafkuraviy ta‘limotlar Rossiya va Angliya imperiyasining parchalanishiga sabab bo‘lganligi ushbu imperiyalarda tashvish uyg‘otgan bo‘lsa, Turkiya imperiyasining esa, yetakchi davlat bo‘lishiga imkon tug‘dirganligi asoslab berilgan. Biroq Turkiya imperiyasida rivojlangan va davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan “Musulmonlar birligi” shiori ostidagi falsafiy ta‘limotlar Rossiya va Angliya imperiyalarining qarshi harakatlarida ko‘zlangan maqsadga erishmasligiga sabab bo‘lganligi isbotlangan.

XIX asr so‘ngiga kelib, islom sivilizatsiyasi va millatchilik masalalari bir chiziqqa parallel qo‘yildi va tafovutlar keltirib chiqardi. Natijada, musulmon jamiyatini uyg‘otish va musulmonlar birligiga erishish kabi g‘oyalar Sharqda Turkiya imperiyasining G‘arbga qarshi turuvchi siyosati sifatida yuqori darajaga ko‘tarildi. Yaqin Sharq mamlakatlari islohotchilari (Jamoliddin al-Afg‘oniy, Muhammad Abdo va boshqalar) va Turkiston o‘lkasidagi islohotchilar (Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va boshqalar) tomonidan olib borilgan siyosiy harakatlar hamda bu harakatlarni faollashuviga sabab bo‘lgan panislomizm, panturkizm kabi mafkuralarining ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga moslashish jarayonlari hamda “islom modernizmi” konsepsiyasining ushbu mafkuralar bilan aloqadorligi kuchaydi.

Dissertatsiyada Rossiya va Turkiyaning tashqi aloqalari, Yaqin Sharq mamlakatlarida islom birligi g‘oyasi bo‘lgan “panislomizm” mafkurasini namoyon

---

<sup>15</sup> Qarang: Курюкин А.Н. Политические модели ислама и исламский радикализм на Ближнем Востоке // Берегиня • 777•Сова, 2017, – № 2 (33). – С. 156-168.

bo'lish holatlari, uning ijobiy va salbiy jihatlari, "panislomizm" va "panturkizm" mafkuralarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. "Islom modernizmi"ning ijobiy va salbiy jihatlari, ko'rinishlari hamda bugungi kunda din niqobi ostidagi guruhlar tomonidan qo'llanilgandagi holati, u keltirib chiqaradigan tahdidlar tahlil qilingan.

Tarixda paydo bo'lgan mafkuralar hamda ular keltirib chiqargan jarayonlar xalqlarning va millatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotlarini yo ijobiy, yo salbiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, bugungi globallashuv davrida ham o'tgan davrdagi mafkuralar yangi fonda yana qayta tiklanib, o'tgan davrdagi qonuniyat asosida emas, balki yangi tendensiyalarni paydo qilayotganligi, natijada esa, diniy radikalizm va separatizm kabi illatlar mamlakatlar taraqqiyotiga xavf solishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, o'tgan davrda paydo bo'lib, bugungi kunda ham o'zgacha ko'rinish va o'zgacha maqsadlarga yo'g'rilgan vayronkor ruhdagi mafkuralarni o'rganish, ularni ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunonchi, Rossiya va Turkiya tashqi siyosatida bir biridan xavfsirash va bir birining strategiyasiga qarshi mafkuralar bilan kurashish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu ikki imperiya tashqi siyosatda o'zaro hamkorlik qilayotgandek ko'rinsa-da, biroq biri ikkinchisiga zimdan turli choralar ko'rishga harakat qilgan. Xususan, Rossiya imperiyasi o'z mustamlakasidagi musulmonlar yashaydigan mamlakatlarni separatizm g'oyasi ta'sirida ajralishi hamda keyinchalik Turkiya imperiyasiga qo'shilishidan xavfsiragan. Turkiya esa, o'z imperiyasini mustahkamlash va Yevropa ta'siridan himoyalaniшни maqsad qilgan holda barcha turkiy xalqlarni mustamlakadan ozod qilib, o'z hududini kengaytirishni maqsad qilgan<sup>16</sup>.

Dissertant fikricha, Rossiya va Turkiya tashqi siyosatida o'zaro hamkorlikdan ko'ra, bir biriga qarshi kurash strategiyasi yetakchilik qilganligini ko'rsatadi. Chunki, Rossiya imperiyasi uchun islom dini xavf tug'diruvchi omil bo'lgan bo'lsa, Turkiya uchun esa, aksincha islom dini ta'sirida imperiyani saqlab qolish mumkin edi. Ikki xil maqsadni ko'zlagan ikki imperiya shu bois, bir-birlari dushman sifatida qarashdi.

O'z tarixida og'ir davrlarni boshidan kechirgan mustamlaka mamlakatlarning imperiyalarga qarshi kurashish yo'lida mafkuraviy qadriyatlarga tayangan holda, islom modernizmi asosida "panislomizm" mafkurasi atrofida birlashishga undagan afg'onistonlik Jamoliddin al-Afg'oniyning diniy-siyosiy harakatlarini o'rganish dolzarb mavzu hisoblanadi. Chunki, Jamoliddin al-Afg'oniyning islom birligi konsepsiyasi Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisining tafakkuriga yangicha mafkuralar sintezlashuvi asosida din niqobi ostidagi guruhlar g'oyalarini singdirmoqda. Shu bois, Jamoliddin al-Afg'oniy tomonidan yaratilgan "islom sotsializmi" mafkurasining tarixini, o'tgan asrdagi ushbu mafkuraviy ta'limot va qadriyatlar qay darajada zamonaviy davrda yangilanganligini va mamlakatlarning taraqqiyotiga qay tarzda ta'sir ko'rsatib kelayotganligini ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish bugungi kun xavfsizligi uchun ham o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib panislomizmning ikki xil tendensiyada namoyon bo'lishi, siyosiy va diniy jihatdan manfaatdor kuchlarning maqsadlariga xizmat

<sup>16</sup> Qarang: Ражабов К. Ўзбекистоннинг XX асрдаги тарихи. (2-китоб). – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти, 2023. – 250 б.

qilishida ko‘rinadi. Keyinchalik bu g‘oyani XX asr boshida Misrning Iordaniya shahrida tashkil topgan “Musulmon birodarlari”<sup>17</sup> diniy-siyosiy tashkilotining harakatlarida o‘z aksini topganligini ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqotda globallashuv davrida davlatning din bilan munosabatlariga, ya’ni dunyoviy davlatlarda islom omiliga katta e’tibor berilayotganligi, biroq islom modernizmiga yetarli darajada diqqat qaratilmayotganligi ta’kidlangan. Aynan ushbu mavzuni o‘rganishga e’tiborning kamligi esa, o‘tgan asr bilan bog‘liq mafkuralarning hozirda yangicha qiyofada maydonga chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, avvalo diniy modernizm masalasini o‘rganish ham dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki, “islom modernizmi”da islom zamonaviy davrda ham o‘z mavjudligini saqlab qolgan holda, undagi qonun-qoidalarini zamonga moslashtirish, ya’ni uning asliyati o‘zgartirmagan holda yondashishni nazarda tutadi. Davrlar o‘tgan sari insonlarning turmush tarzida yangicha muammolar paydo bo‘la boshlashi tabiiy hol hisoblanadi. Ana shu muammolarning islom dini asosida zamonga mos holda isloh qilinishi “islom modernizmi” (musulmon modernizmi) deyiladi<sup>18</sup>. “Islomni modernizatsiya qilish” jarayonida esa, islomning mazmun-mohiyati, undagi tushunchalarni o‘zgartirilishi nazarda tutiladi. Natijada, din niqobi ostidagi ekstremistik guruhlarining paydo bo‘lishi va diniy-siyosiy vaziyalar ostida islomni siyosiy qilinishi hamda mamlakatlar tinchligi va osoyishtaligini buzish, ularning taraqqiyotiga zarba berish kabi hodisalarning ortib borishi kuzatiladi.

“Islom modernizmi” va “Islomni modernizatsiya qilish” jarayonlari turli xil ko‘rinish kasb etadi. Shu bois, ularni ijobiy va salbiy xususiyatlarga ajratish maqsadga muvofiq. “Islom modernizmi” jamiyat va davlat rivojlanishida ijobiy natijalarni beradi. Biroq, “islomni modernizatsiya qilish” jarayoni esa, salbiy holatlarni, ya’ni din niqobidagi aqidaparast, ekstremist va terroristlarni vujudga keltirishga sabab bo‘ladi. “Islom modernizmi”da din davlatdan ajratilgan bo‘lsa-da mustaqil tarzda o‘z faoliyatini olib borishga harakat qilishi, shuningdek, o‘tgan asrda yaratilgan ijtimoiy ta’limotlarning mazmun-mohiyati ushbu mafkuralarni yaratuvchilar tomonidan aniq belgilab berilmaganligi sababli Yaqin Sharq mamlakatlarida beqarorliklar kelib chiqishiga turtki bo‘layotganligiga ishonch hosil qilish lozim. Ayniqsa, Yevropa va musulmon olamidagi madaniyatlarning sintezi modernistlar tomonidan to‘g‘ri tashkil etilmaganligini o‘tgan asrdagi ideologlarning asarlari ham tasdiqlab berdi. Shu bois, “jadidchilik harakati”ni “islohotchilik harakati” deb atashimiz ham mumkin degan fikrni paydo qiladi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, panturkizm mafkurasidan ko‘ra panislomizm mafkurasini kengroq ko‘lamga ega hisoblanadi. Chunki panturkizm turkiy xalqlarning birlashtirsa, panislomizm dunyo musulmonlarining barchasini birlashtirishga qaratilgan mafkuradir. Panislomizm o‘tgan asrda Turkiya imperiyasining mavqeini saqlab qolishdagi siyosiy harakat bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda esa, din niqobi ostida faoliyat yuritayotgan guruhlarining maqsadlari uchun

<sup>17</sup> Qarang: Егупов А.В. Исламский радикализм на постсоветском пространстве: идеологические и организационные аспекты. Автореферат дис... кандидата политических наук. – Краснодар: 2005. – 28 с.

<sup>18</sup> Qarang: Адиб Халид. Ислам после коммунизма: Религия и политика Центральной Азии. – М.: Новое литературное обозрение. 2010. – 304 с.

xizmat qiluvchi ma'naviy quroldir. Shu bois, panislomizm tendensiyasini muhokama qilayotganda, hamisha uning ijobiy yoki salbiy jihatlari ham borligini unutmagan holda, bu mafkuradan kimning qay darajada manfaatdor ekanligiga diqqat qaratish muhimdir.

Dissertatsiyaning **“Hozirgi davr Yaqin Sharq mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy muammolarning vujudga kelishida panislomizm g'oyalarining destruktiv ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida Yaqin Sharq mamlakatlarida diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmni vujudga keltirgan omillar, diniylik va dunyoviylik tendensiyalarining namoyon bo'lish shakllari, “Arab bahori” fenomeni va uning oqibatlari, “Islomofobiya”ning Yaqin Sharq va musulmon olamiga ta'siri masalalari tadqiq qilingan.

Yaqin Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy muammolar uzoq tarixga ega bo'lsa-da, biroq bugungi kunga kelib zamonaviy ideologiyalar bilan sinkretlashgan holda yangi muammolarni kombinatsiyasini vujudga keltirmoqda. Ayniqsa, o'tgan asrdagi mafkuraviy ta'limotlar mintaqada din niqobi ostidagi ekstremizm, terrorizm kabi tahdidlarni vujudga keltirib, musulmon mamlakatlari aholisiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu bois Yaqin Sharqda din omili bilan bog'liq bo'lgan muammolar diniy-siyosiy vaziyatlarni vujudga keltirib, mintaqada diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi tafovutlarni hamda tahdidlarni paydo qilayotganligi hamda mintaqaning kelgusidagi hayotiga ta'sir o'tkazayotgan omillarni bartaraf etish yo'llarini ilmiy dalillarga tayangan holda asoslash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqotda o'tgan asrda panislomizm mafkurasi zamirida Yaqin Sharq mamlakatlarida islomdan siyosiy maqsadlarda foydalanish islom radikallasib, islom dini niqobi ostida ekstremistik va terroristik guruhlar paydo bo'lishiga zamin yaratgani asoslangan. Bu esa, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'sir ko'rsatib, mamlakat hayotida din omili bilan bog'liq bo'lgan ekstremistik va terroristik harakatlarni paydo bo'lishiga imkon berganini isbotlashga xizmat qilgan. Yaqin Sharq mamlakatlari uzoq yillar mobaynida mustamlaka o'lka sifatida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, biroq Usmoniy imperiyasining mustamlakasi bo'lganligi u yerda islom omilining saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Yagona xalifalik atrofida birlashgan musulmon mamlakatlarida diniylik holati ko'proq namoyon bo'lgan<sup>19</sup>. Ayniqsa, Yaqin Sharq bugungi kunga qadar ham ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy tendensiyalarni ham boshidan kechirgan mintaqa hisoblanadi.

Dissertant fikricha, Yaqin Sharq mamlakatlarida diniylik va dunyoviylik muvozanatiga ta'sir ko'rsatuvchi din omili bugun to'g'ridan to'g'ri ijtimoiy-siyosiy masalalarga qaytganini ko'rsatmoqda. *Bir tarafdin* Yaqin Sharqda dindin siyosiy maqsadlar yo'lida foydalanayotgan din niqobi ostidagi guruhlar urchib ketayotgan bo'lsa, *ikkinchi tarafdin* esa, islomning tinchlik, bag'rikenglik kabi shiorlaridan foylangan holda islom ma'rifatini dunyoga taratishga urinayotgan xalqaro islomiy tashkilotlar ham faoliyat olib bormoqdalar. Birinchi guruhga mansub tashkilotlar sakral davlat tarafdori bo'lsalar, ikkinchi guruh tarafdorlari esa, sekulyar davlatda ham dinni saqlab qolgan holda boshqariladigan

<sup>19</sup> Qarang: Каримов Ф.Э. Якин Шарк давлатларидаги этносиёсий жараёнларнинг минтақа хавфсизлигига таъсири: сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)... диссертацияси. – Тошкент: 2017, – 182 б.

zamonaviylikni targ'ib qilmoqdalar<sup>20</sup>. Tadqiqotda mana shu ikki tendensiya Yaqin Sharq mamlakatlarida to'liq sifatida ko'tarilib, pasayib borishi mintaqada turli vaziyatlarni paydo qilayotganligi arab mamlakatlari bo'yicha sotsiologik tahlillarni olib boruvchi "Arab barometri" tashkilotining bergan ishonchli ma'lumotlariga ko'ra tahlil qilingan.

Yaqin Sharq mamlakatlari diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqsalargina mintaqadagi har qanday vaziyat o'z muvozanatini saqlab tura oladi. Bunda asosan, davlat va din masalalariga katta e'tibor berish, shuningdek, din va siyosat masalalarida o'zaro hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'ya olishlari lozim. Buning uchun davlat va dinning maqsadi bir bo'lishi hamda davlat dindan xavotirga tushmasligi kerak bo'ladi. Dindan qo'rqish, yovsirash yoki xavfsirash ular o'rtasidagi muvozanatni buzadi hamda nizolarni keltirib chiqarish holati kuchayadi. Ayniqsa, "Sekulyarizmni dogmatik, bir yoqlama yoki bugungi kun atamasi bilan ifodalaganda "ekstremistik" tushunish diniy e'tiqodning umuminsoniy qadriyat ekanligini ham inkor etishga olib boradi"<sup>21</sup>. Yaqin Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy hayotning o'zgarish jarayonlari, ayniqsa, sekulyarizatsiya va diniy an'analar o'rtasidagi murakkab dinamika hududda ijtimoiy-siyosiy muammolarni mavjudligini saqlab kelmoqda. Yaqin Sharq mamlakatlarida diniylik va dunyoviylik tendensiyalari o'rtasidagi muvozanatning ta'minlanmaganligi aholi ongida ikki tendensiyaning vaqti vaqti bilan o'zgarib turishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga yaqin Sharqdagi bugungi muammoli vaziyatlarning sabablari iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy xarakter kasb etayotganligi "Arab bahori" voqealariga ham borib taqaladi.

Tadqiqotda arab dunyosidagi qo'zg'olonlar "Arab bahori" deb nomlanishi unda yangilanish, ya'ni islohotlar nazarda tutilganligi qayd etilgan. Shuningdek, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi beqarorliklarning ko'pchiligi "Arab bahori" jarayonidan ilhomlangan holda davom etib kelayotganligi, Yaqin Sharqda sodir bo'lgan "Arab bahori" chirigan siyosiy rejimlarga barham berganligi, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi ichki muammolar "Arab bahori" natijasida namoyon bo'lganligi va siyosiy tus olganligi, "Arab bahori" nomi ostida Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mintaqasi davlatlari ichki siyosatida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, diniy, harbiy masalalar sinkretlashib, avtoritar rejimlarga qarshi norozilik namoyishlarini vujudga keltirganligi, "Arab bahori" qisqa muddat davom etgan bo'lsa-da, biroq uning uzoq muddatli oqibatlarini 2014 yilda ISHIDning paydo bo'lishiga ham olib kelganligi isbotlangan<sup>22</sup>.

Bugun zamonaviy dunyoning butun mintaqalarida din bilan bog'liq fobiyalar mavjud. Ayniqsa, hozirgi globallashtirish davrida insoniyatning borgan sari kundan kunga ko'p bora fobiyalarga duch kelishi ularni o'z yurtlarini tashlab, o'zga

<sup>20</sup> Qarang: The sacred and the secular // <https://www.aljazeera.com/opinions/2011/5/9/the-sacred-and-the-secular> (Murojaat sanasi: 23.04.2024.); Байалиев Ж.К. Глобализация шароитида диний ва дунёвий мафкураларнинг ўзаро таъсири: фалсафа фанлари номзоди... диссертацияси. – Тошкент: 2011. – 170 б.

<sup>21</sup> Бегматов А., Қодиров А., Дадабоева М. Миллий маънавият, секуляр сиёсат ва фуқаролик жамиятининг ривожланиши. – Тошкент: "Академиа", 2012. – Б. 69.

<sup>22</sup> Qarang: Антюхова Е.А. Подход НАТО к урегулированию конфликтов "арабской весны". Автореферат дис... кандидата политических наук. – Москва: 2016. – 29 с.; БМТ: "Араб баҳори" Яқин Шарққа 614 млрд долларга тушди. // <https://kun.uz/kr/39691743> (Murojaat sanasi: 12.12.2022).

yurtlarga ko'chib ketishlariga sabab bo'lmoqda. Fobiyalar insonlarning ijtimoiy-psixologik holatlariga hamda davlatlarning iqtisodiy-siyosiy jarayonlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chunonchi, islomofobiya va ksenofobiyalarning ta'siri natijasida esa, begunoh insonlarning qoni to'kilmoqda. Islom diniga e'tiqod qiluvchilarga nisbatan o'zga din vakillari yoki chet el fuqarolari tomonidan agressiv munosabatlar shakllanib bormoqda. Shu bois dissertatsiyada diniy bag'rikenglik tamoyiliga zid bo'lgan toqatsizlikni paydo qilayotgan hamda ekstremistik g'oyalarning tarqalishiga zamin yaratayotgan islomofobiyaning namoyon bo'lish holatini shartli ravishda quyidagi uch davrga bo'lish maqsadga muvofiq deb hisoblangan. Xususan:

*Birinchi davr* – II-jahon urushidan to 1980 yillarga qadar;

*Ikkinchi davr* – SSSRning parchalanishi, ya'ni sovuq urush yillari;

*Uchinchi davr* – 2011 yildan (“Arab bahori”ning boshlangan paytidan) bugungi kunga qadar. Demak, islomofobiya davrma-davr o'z ta'sirini kengaytirib borayotgan, shuningdek, diniy nizolarni kelib chiqishiga undayotgan hamda diniy bag'rikenglik tamoyillariga putur yetkazuvchi g'oya shaklida tarqalmoqda. Bunday g'oyaning tarqalishiga unga ijtimoiy munosabat sifatidagi shakllangan stereotiplar sabab bo'lmoqda.


Dissertant mulohazalariga ko'ra, “Arab bahori” yangi siyosiy tuzilmalar vujudga kelishiga turtki bo'ldi, mintaqada din va siyosat masalalarini o'zaro to'qnashuviga olib keldi. Diniy tushdagi harakatlar Yaqin Sharqning ayrim mamlakatlaridagi siyosiy bo'shliqni to'ldirib, mintaqada din niqobi ostidagi yangi ekstremistik guruhlarni vujudga keltirdi va mintaqadagi muammolarni yanada murakkablashtirib yubordi. Ekstremistik g'oyalarning tarqalishi va terroristik aktlarning sodir bo'lishiga islomofobiya ham turtki bo'lmoqda. Chunonchi, islomofobiyaning ta'siridan din niqobidagi ekstremistik va terroristik tashkilotlar unumli foydalanmoqda. Islomofobiyaning kuchayishi dunyo aholisi o'rtasidagi diniy bag'rikenglik tamoyillariga putur yetkazib, diniy adovatni paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Dissertatsiyaning **“Yaqin Sharq mamlakatlaridagi muammolarning O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Yaqin Sharq mamlakatlarining rivojlanish tendensiyasi va uning Markaziy Osiyo hayotiga transformatsiyasi islomning siyosiylashuvi va desekulyar jarayonning O'zbekiston taraqqiyotiga ta'siri, O'zbekistonda desekulyarizatsiya va reislamizatsiya jarayonlari, din va siyosat mexanizmlarini integratsiyalashuvida “ijtimoiy davlat” va “dunyoviy davlat” tamoyillarining shakllanishi masalalari tahlil etilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan mafkuraviy ta'limotlardan biri bo'lgan “islomizm” bugungi kunga kelib yangicha qiyofada dinning siyosiylashuviga sabab bo'lmoqda. “Panislomizm mafkurasi” ilmiy rakursda tahlil qilinganda, ushbu mafkuraning o'ziga xos jihatlari bilan birga u keltirib chiqargan muammolar yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, “panislomizm” mafkurasini avvalgi va hozirgi ko'rinishi, avvalgi va hozirgi davrdagi ishlash mexanizmi qiyoslanishiga erishilgan holda, unga qarshi kurash strategiyasini aniqlash imkoni ham paydo bo'ladi.

Dissertatsiyada “O‘zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida Toshkent shahri, Sirdaryo, Navoiy, Surxondaryo, Namangan hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi kesimida 2021-yilda 1028 nafar respondent o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma natijalari batafsil tahlil etilgan<sup>23</sup>. “Vatanimizni kelajakda o‘z an‘analari va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun qaysi mamlakatlar bilan hamkorlik qilishi kerak?” degan savolga respondentlarning 40,9% Saudiya Arabistoni bilan hamkorlik qilishni taklif berishmoqda. 22,4% respondentlar Turkiya bilan hamkorlik maqsadga muvofiq bo‘lishini ta’kidlashgan. (Qarang: 1-rasm)

1-rasm



### 1-rasm. Vatanimizni kelajakda o‘z an‘analari va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun qaysi mamlakatlar bilan hamkorlik qilishi kerak?


Yuqoridagi ikki davlatni tahlil qiladigan bo‘lsak, yana diniylik fonini balandligi, to‘g‘rirog‘i islom dini paydo bo‘lgan davlatni ideal darajaga qo‘yish ustunlik qilganligini guvohi bo‘lamiz. Respondentlarning 22,4% Turkiya bilan hamkorlik maqsadga muvofiq bo‘lishini ta’kidlashgan. Bu albatta, ijobiy hisoblanadi. Chunki, Turkiya Respublikasi ham sekulyar davlat bo‘lib, undagi ko‘pgina qonuniylik prinsiplari bizga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, turkiy xalqlar qatoridan Turkiya ham o‘rin olgan. Shu bois, bunday fikr dissertant tomonidan ijobiy deb baholangan.

So‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarga “Yaqin Sharq mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan beqarorliklarga nima sabab deb o‘ylaysiz?” degan savol bilan murojaat qilinganda respondentlarning 33,2% siyosiy kelishmovchiliklar deb, 28,7% din omili deb javob berishgan. Bu esa, Yaqin Sharqdagi muammolardan eng kattasi siyosiy kelishmovchiliklar degan

<sup>23</sup> Madaeva Sh., Sobirova U., Yusupova D., Kumusheva M. “A-OT-2021 Innovatsion loyiha bo‘yicha o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma” loyihasi va dasturi nomli ilmiy ishlanma // O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi guvohnomasi / 2021 yil 3 dekabr. Guvohnoma № 004035.

xulosani beradi. To‘g‘ri, ijtimoiy-siyosiy hayotda faqat din omili keltirib chiqaradigan muammolardan tashqari hududiy, chegaraviy, irqiy muammolar, milliy nizolar ham mavjud. Biroq, siyosiy va diniy omilning katta ko‘rsatkich rishi Yaqin Sharqda sanab o‘tilgan muammolar ichida eng katta xavf va davlatlar taraqqiyotiga putur yetkazuvchi omil siyosiy va diniy ekanligini ko‘rsatadi. (Qarang: 2-rasm)

2-rasm



### 2-rasm. Yaqin Sharq mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan beqarorliklarga nima sabab deb o‘ylaysiz?

Dissertant fikricha, yuqorida keltirib o‘tilgan sotsiologik so‘rovnoma natijalari Yaqin Sharq mamlakatlarida din omili bilan bog‘liq bo‘lgan va siyosiy kelishmovchiliklar keltirib chiqarayotgan muammolar Markaziy Osiyo fuqarolarining dunyoqarashlariga ta’sir qilibgina qolmay, balki ularni ham ushbu jarayonlarga, xususan ekstremistik ruhdagi guruhlar safiga qo‘shilib qolishlariga sabab bo‘layotganliklarini ko‘rsatib bermoqda. Yaqin Sharq mamlakatlarida din omili bilan bog‘liq bo‘lgan va siyosiy kelishmovchiliklar keltirib chiqarayotgan muammolar Markaziy Osiyo fuqarolarining dunyoqarashlariga ta’sir qilibgina qolmay, balki ularni ham ushbu jarayonlarga, xususan ekstremistik ruhdagi guruhlar safiga qo‘shilib qolishlariga sabab bo‘layotganligi aniqlangan.

Tadqiqotda XX asrning so‘nggi choragida O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida murakkabliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘lgan “desekulyarizm” tendensiyasining namoyon bo‘lish jarayoni, sekulyarizm va desekulyarizmning bir-biridan farqli va bir-biriga qarama-qarshi tomonlari, desekulyarizmni keltirib chiqargan omillar bayon qilingan. Shuningdek, o‘tish davridagi aholi diniy dunyoqarashining shakllanish muammolari, yoshlar ma’naviy olamida dinga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi oqibatida ularning siyosiy kuchlar qo‘lida qurol bo‘lib, o‘tish davridagi desekulyaristik jarayonni namoyon bo‘lishiga sabab bo‘lganligi falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Yaqin Sharq mamlakatlari butun musulmon olami uchun ta'sir ko'rsatsa, Markaziy Osiyo esa, butun Yevrosiyoning markazi sifatida qaraladi<sup>24</sup>. XX asrda sodir bo'lgan modernizatsiya jarayoni Sharqdagi an'anaviylik va G'arbdagi zamonaviylik bilan to'qnashdi. Natijada, Sharq dunyosining manzarasi madaniyatlar to'qnashuvi natijasida o'zgardi. XXI asrga kelib esa, Sharqda, xususan Yaqin Sharq mamlakatlarida ma'naviyat va mafkura masalalari ikkinchi o'ringa o'tib, iqtisodiy-siyosiy muammolar birinchi o'ringa qalqib chiqdi. Biroq, 2011-yillarga kelib, muammolarning o'rnining almashishi, ya'ni mintaqada islomning siyosiylashuvi Yaqin Sharqda din niqobi ostidagi guruhlar sonining ortishiga hamda siyosiy manfaatlarning to'qnashuviga olib keldi. Markaziy Osiyoda esa, aksincha o'tish davrida iqtisodiy-siyosiy masalalar o'rniga mafkuraviy to'qnashuvlar birinchi o'ringa chiqdi. Natijada, turli radikal guruhlar tashqi siyosiy kuchlarning ta'sirida mintaqada turli noqonuniy guruhlarini tuzib, mamlakatlar hayotiga xavf tug'dira boshladi. Milliy va diniy qadriyatlarni qaytarishga ehtiyojmand bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari turli guruhlarining ta'sir doirasiga tusha boshladi. Umuman olganda, islomga bo'lgan ehtiyojning mintaqada mavjudligi tashqi kuchlar uchun qo'l keldi.

Dissertant fikricha, XX asrning so'ngiga kelib Yaqin Sharq mamlakatlari hayotida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq muammolar tobora avj olib bordi. Ayniqsa, islomning siyosiylashuvi bu o'lkalarda diniy aqidaqparastlik g'oyalariga yo'g'rilgan eng yirik ekstremistik va terroristik guruhlarining paydo bo'lishiga zamin yaratib berdi. Islomning siyosiylashuvi esa, "islomizm" mafkurasida mujassamlashdi. "Islomizm" islomiy qadriyat va diniy me'yorlardan tobora uzoqlashib boradigan va siyosiy harakat bilan bog'lanadigan konsepsiya hisoblanadi<sup>25</sup>. Dunyoviy davlatlarda din va siyosat o'rtasidagi oltin o'rtalikning buzilishi dindan siyosiy maqsadlarda foydalanuvchi ekstremistik va terroristik guruhlarining paydo bo'lishiga zamin yaratib berishi mumkin. Bugungi kunda "islomizm" islom diniga bo'lgan e'tiqodni paydo qiluvchi ta'limot emas, balki siyosiy maqsadni ko'zlashga qaratiladigan harakat ko'rinishini namoyon etadi. "Islomizm" konsepsiyasidan siyosiy harakat sifatida ham, mafkura sifatida ham foydalanish mumkin.

Bugungi globallashuv davrida dunyoda g'oya va mafkuralar kurashi tobora keskin tus olib, milliy, diniy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy xavflarning kun sayin jiddiy tus olishiga sabab bo'lmoqda. Davlatlarning geostrategik maqsadlariga putur yetkazuvchi, ularning taraqqiyotiga zarba beruvchi mafkuralarning kelib chiqish sababi hamda qay maqsadga yo'naltirilganligini o'rganish bugungi kun uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, bugungi kunning muammolari o'tgan kunning holatlari bilan yuzaga chiqadi. Shu bois, o'tgan davrlarni tahlil qilish orqali hozirgi zamon muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda kelgusida yangicha tusda davom etmasligi uchun strategik konsepsiyalarni ishlab chiqishga ham imkon tug'diradi.

<sup>24</sup> Qarang: Казанцев А.А. "Большая игра" с неизвестными правилами: мировая политика и Центральная Азия. – М.: МГИМО-Университет, 2008. – 381 с.

<sup>25</sup> Qarang: Аксенов, А. Г., Кузнецов, В. А. Беседы об арабском мире: политика, власть, общество. – Москва: ИП РСМД, 2024. – 208 с.

Dissertatsiyada XIX asr boshlarida modernizm sekulyarizmni keltirib chiqarganligi, XX asr so'ngiga kelib, O'zbekistonda sekulyarizm modernizatsiyaga qarshi bo'lgan desekulyarizmni paydo qilganligi asoslangan. Chunki, sekulyarizm o'tgan asrda dinning alohida faoliyat yuritishiga imkon beradigan qonuniyatlariga qarshi harakat qilganligi sabab, jamiyat aholisining ongida unga nisbatan reaksiyon munosabatni yuzaga keltirdi. Oxir-oqibat sekulyarizm asl mohiyatini to'g'ri anglanmagan holatda dinning yana jamiyatga qaytishida modernizatsiyaga asoslangan sekulyarlikni qo'llash emas, balki din ustun bo'lgan jamiyatga intilishni ifodalaydigan desekulyar jarayon olib boradigan sakrallik ko'rinishidagi davlatga ehtiyoj ortib ketdi. Bu holat esa, O'zbekistonning mustaqillik davridagi ilk kunlarini yanada murakkablashishiga sabab bo'ldi. Umuman aytganda, sekulyar davlatning aholisi musulmon bo'lsa, din siyosiy omil sifatida hamisha nazoratda bo'lishi lozimligini talab qiladi. Aks holda, davlatda desekulyaristik jarayon vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillar ko'lami kengayib, mamlakat taraqqiyotiga tahdid paydo qilishi mumkin. Shu bois, bugungi tahlikali zamonda O'zbekiston yoshlarining dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, yangicha g'oyalar bilan o'tgan davrning g'oyalarini ilgari surishga da'vat etuvchi din shiori ostiga berkingan noqonuniy guruhlarining iddaolariga o'zlarining sog'lom ma'naviy e'tiqodlari bilan javob beradigan va diniylik va dunyoviylik tamoyillarining mohiyatini to'g'ri anglay oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi fikricha, dunyoda rivojlangan davlatlarning taraqqiyot yo'lini o'rganadigan bo'lsak, ilm-fan yuksak darajaga ko'tarilgan, iqtisodiy jihatdan baquvvat davlatlarning barchasi dunyoviy rivojlanish yo'lini tanlaganligining guvohi bo'lamiz. Hatto, aholisining ko'p qismini musulmonlar tashkil qilgan Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Marokash kabi bir qator davlatlar ham dunyoviylik yo'lidan ketib adashmaganligini davrning o'zi isbotlamoqda. O'zbekistonning yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasida O'zbekistonni dunyoviy davlat sifatida belgilanishi - dunyoviy taraqqiyot, turli dinlar, konfessiyalar va mazhablar o'rtasida bag'rikenglik va totuvlikni mustahkamlashga, diniy birlashmalarning mustaqil faoliyat yuritishiga, din va e'tiqod erkinligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "Dunyoviy davlat" degan normaning qat'iy belgilab qo'yilishi yangilanish jarayonida turli millat vakillarining e'tiqod va vijdon erkinligi, diniy mansubligidan qat'iy nazar qonun oldida tengligi va diniy bag'rikenglikning ta'minlanishini kafolatlaydi va ularning umummilliy g'oya ostida birlashib, yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yo'lida xizmat qilishlariga zamin yaratadi<sup>26</sup>.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, dunyoviy davlat dinning yo'q bo'lishini maqsad qilmaydi, aksincha, dinning rivojlanishi uchun qonuniy asosda imkoniyat yaratishga intiladi. Sekulyar davlatlarda aholining diniy e'tiqodi kuchli bo'lsa, din siyosiy jarayonlarda muhim rol o'ynashi va davlat tomonidan tartibga solinishi zarur. Aks holda, desekulyarizatsiya jarayonlari yuzaga kelishi mumkin, bu esa davlat boshqaruvi va ijtimoiy barqarorlikka xavf tug'diradi.

---

<sup>26</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2023. – Б. 5.

## XULOSA

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq va Turkistondagi falsafiy-mafkuraviy ta'limotlarni o'rganish, tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Yaqin Sharq va Turkistonning siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy jarayonlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni to'g'ri tushunish uchun mintaqadagi mafkuralar, diniy va etnik omillarni hisobga olish zarur. Bu davrda paydo bo'lgan yangi fikrlar, xususan, jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, milliy ozodlik harakatlariga va ijtimoiy yangilanishlarga asos bo'ldi. Shu bilan birga, imperiyalarning mafkuraviy konsepsiyalari, siyosiy va diniy qarashlarning xilma-xilligi, islomning siyosatga ta'siri ushbu jarayonlarning murakkabligini ko'rsatadi. Ushbu muammoni zamonaviy kontekstda, amaliyotdagi tendensiyalarni hisobga olgan holda chuqurroq tahlil qilish muhimdir.

2. Turkiston o'lkasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadid ma'rifatparvarlarining faoliyati, Yaqin Sharqda paydo bo'lgan yangi mafkuralar va ijtimoiy o'zgarishlarning tarqalishiga sabab bo'ldi. Bunga qarshi, Chor va Rus imperiyalari o'zlarining siyosiy va ideologik mafkuralarini mustahkamlashga harakat qildilar. Ular jadidlar va ilmiy ulamolarni o'zlarining kommunistik mafkurasiga qarshi dushman sifatida ko'rib, ularga turli tazyiqlar o'tkazdilar. Shu bilan birga, imperiyalar o'zlarining avtokratik tizimlarini himoya qilish va har qanday o'zgarishlarga qarshi turish orqali, diniy rahbarlar va ilmiy ulamolarni tahdid sifatida qabul qilib, ularni repressiya qilishdi. Bu jarayonlar Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zgarishlarga va ma'naviy yangilanishlarga olib keldi.

3. Islomning Yaqin Sharq va Turkistondagi ichki va tashqi siyosatga ta'siri juda katta bo'lgan. Islom, nafaqat diniy mafkura sifatida, balki siyosiy va ijtimoiy hayotda ham muhim rol o'ynagan. Mintaqadagi siyosiy tizimlarning shakllanishi, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, shuningdek, tashqi siyosatdagi qarorlar ko'pincha diniy prinsiplar va qadriyatlarga asoslangan. Shuning uchun islomning ta'siri ikki yo'nalishda, ya'ni ichki siyosatda, mamlakat ichidagi hokimiyatni mustahkamlash va ijtimoiy hayotni boshqarishda hamda tashqi siyosatda, ya'ni xalqaro munosabatlar va qo'shni davlatlar bilan aloqalarni o'rnatishda namoyon bo'lgan. Bu ta'sir mintaqada ixtiloflar, nizolar va o'zgarishlarni yuzaga keltirib, turli siyosiy tizimlarning shakllanishiga va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Yaqin Sharq va Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga tarix falsafasi nuqtai nazaridan yondashish, o'tgan davrda milliy va diniy muammolar siyosat bilan chambarchas bog'langanligini ko'rsatib, turli manfaatlarni qamrab olgan mafkuralar yagona maqsad yo'lida shakllanganligi ayon bo'ldi.

4. Panislomizm g'oyasi musulmon dunyosining diniy, siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvini maqsad qilgan yirik mafkura sifatida shakllangan bo'lib, u ayniqsa XIX–XX asrlar davomida o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatgan. Bu mafkura, ayniqsa, Rossiya va Angliya imperiyalarining mustamlakasiga aylangan musulmon o'lkalarda ozodlik va mustaqillik uchun kurashning mafkuraviy asosiga aylangan. Panislomizm musulmon millatlarini yagona ummat sifatida hamda

umumiy diniy qadriyatlar asosida birlashtirishni maqsad qilgan mafkura bo'lgan. Aynan shu sababli, u mustamlakachilarga qarshi qaratilgan inqilobiy harakatlarning mafkuraviy negiziga aylandi. Usmoniy imperiyasi davrida panislomizm va panturkizm mafkuralari imperiyaning geosiyosiy manfaatlari yo'lida qo'llanilgan bo'lsa-da, bu mafkuralar musulmon xalqlari orasida uyg'onish, o'zlikni anglash va birlashishga intilish kabi jarayonlarga zamin yaratdi.

5. "Panislomizm" va "panturkizm" mafkuralari buyuk imperiyalarni parchalash uchun ishlab chiqilgan strategiya ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, panislomizm va panturkizmning Rossiya va Angliya imperiyalari ijtimoiy muhitiga ko'rsatgan ta'siri ushbu mafkuralarining bir-biridan farqli va o'ziga xos jihatlari mavjudligi o'sha davr maxfiy hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlar ochib berdi. "Panislomizm" va "panturkizm" mafkuralari tarixan muayyan siyosiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarni himoya qilish va ilgari surish maqsadida qo'llangan bo'lib, ularning ta'siri bugungi kunda ham turli shakllarda namoyon bo'lib, global va mintaqaviy miqyosda turli bahs va ziddiyatlarga zamin yaratmoqda.

6. Zamonaviy turk siyosatida panislomizm va panturkizm mafkularining yashirin tarzda ta'siri saqlanib qolganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Yaqin Sharqda salafiylik g'oyalari panislomizm bilan uyg'unlashgan bo'lsa, Turkiyada "Nurchilik" harakati panturkizm mafkurasini bilan sinkretlashgan bo'lib, bu holat "Vahhobiylik" va "Nurchilik" kabi guruhlar strategiyasida o'z ifodasini topmoqda. Panturkizm faqat turkiy xalqlarning birligini ko'zlasa, panislomizm butun musulmon ummatini birlashtirishni maqsad qilgan keng ko'lamli mafkura bo'lib, tarixda Usmonli imperiyasining siyosiy pozitsiyasini saqlab qolishda muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda esa panislomizm ayrim din niqobi ostida faoliyat yurituvchi guruhlar tomonidan ideologik qurol sifatida qo'llanilib, turli siyosiy manfaatlarga xizmat qilmoqda. Shu bois, panislomizm mafkurasini baholashda uning faqat diniy emas, balki geosiyosiy va mafkuraviy vosita sifatida kimlar uchun qanday manfaatlarni keltirayotganini chuqur tahlil qilish, uni bir yoqlama emas, har tomonlama yondashuv bilan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Panislomizm mafkurasini dastlab, Abdul Hamid II tomonidan musulmon dunyosini birlashtirish, G'arb mustamlakachiligiga qarshi siyosiy va mafkuraviy kurash vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan bu mafkurasini ayrim hollarda salbiy talqin qilinib, global darajadagi xavfli tendensiyalarga sabab bo'lmoqda. Gegemonlikka da'vat qiluvchi bugungi zamonaviy panislomistik harakatlar aksariyat hollarda milliy chegaralarni inkor etgan holda, yagona ummat timsolida siyosiy birlashuvni ko'zlaydi. Bu esa, boshqa din vakillariga nisbatan toqatsizlik, radikalizm va agressiyani keltirib chiqaradi. Natijada, islom dini asl mohiyatidagi bag'rikenglik, adolat va tinchlik tamoyillaridan chekinib, ayrim g'arblik doiralar tomonidan islomofobiya kuchayishiga asos bo'layotgan xavfli ideologiya sifatida talqin qilinmoqda. Shunday ekan, panislomizm g'oyasi tarixda milliy va diniy ozodlik uchun xizmat qilgan bo'lsa-da, hozirgi global dunyoda mutaassiblik va ekstremizm yo'lga foydalanish islom dini sha'niga putur yetkazadi va musulmon jamiyatlari ichidagi taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

8. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida vujudga kelgan, chuqur ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlarni ko'zlagan keng

qamrovli islohotchilik harakati bo‘lib, u jamiyat hayotining barcha sohalarini zamon talablari asosida yangilashni maqsad qilgan. Jadidlar xalqni jaholatdan chiqarish, ularni ilm-fan, zamonaviy ta‘lim, matbuot va madaniyat orqali uyg‘otish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va ijtimoiy ongini oshirishni bosh maqsad deb bilganlar. Ular an‘anaviy ta‘lim tizimiga yangicha yondashuv olib kirib, dunyoviy fanlarni ham o‘rgatishni targ‘ib qilgan, shu orqali tafakkur va dunyoqarashda yangilanishga erishishni ko‘zlaganlar. Jadidlar faqat ta‘lim emas, balki madaniyat, adabiyot, siyosat va ijtimoiy hayotda ham islohotlarni ilgari surib, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va milliy birlikni mustahkamlashdek ezgu g‘oyalarga xizmat qilganlar. Shu jihatlari bilan jadidchilik harakatini oddiy yangilanish emas, balki o‘z davrining haqiqiy ilg‘or va har tomonlama islohotchilik harakati sifatida baholash mumkin.

9. Yaqin Sharq va Turkiston o‘lkalarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mafkuraviy jarayonlar umumiylikka ega bo‘lgani bilan, ular turli guruhlar, davlatlar manfaatlari va ichki-tashqi sharoitlar ta‘sirida turlicha shakllangan. Bu jarayonda islom omili va mafkuraviy kurashlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. XIX asrning oxirida vujudga kelgan “panislomizm” mafkurasi bugungi kunda ekstremistik ruhdagi guruhlarining shioriga aylanganligi bois, XXI asrga kelib u yanada siyosiy boshqarilgan va salbiy xarakterdagi “neopanislomizm” ta‘limotini o‘zida aks ettira boshladi va yangi qiyofani kashf etishi natijasida ekstremistik ruhdagi guruhlarining asosiy mafkuraviy quroliga aylandi.

